

NISHOTIY “HUSNU DIL” DOSTONIDAGI OBRAZLAR TIZIMI VA IJTIMOIIY-AXLOQIIY G‘OYALAR

Qolandarova Dilafruz Karimovna

*Xorazm viloyati Urganch shahri Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti 2-bosqich doktoranti*

Mavlono Nishotiy “Husnu Dil” dostonida talqin qilgan obrazlarida insoniy fazilatlarni, xarakterli belgilarni, kamchilik va nuqsonlarni, ichki kechinmalarni zo‘r mahorat bilan tasvirlaydi. Dostondagi har bir obraz o‘ziga xos xususiyatga ega. Unga berilgan nomlarda ham o‘sha obrazning fazilati yoki kamchiligi ko‘rinib turadi. Masalan, Dil (Fuod) obrazida yurak harakati va xususiyati beriladi. Husn – go‘zallik, latofat va nazokat simvoli sifatida ta‘riflanadi. Shuningdek, Aql, Xayol, Nazar, Noz, Mehr, Vafo, Qayg‘u, Sabr, Anduh, Qomat, Faxr, Nomus va hokazolar obrazida ism, so‘zning haqiqiy ma‘nosi, kishilardagi butun xususiyati ifodalanadi. Shoir bu obrazlar orqali real hayotdagi kishilar xarakterini, hodisalarga bo‘lgan munosabatini, kurashini tasvirlab, jamiyat hayotidagi ezgulikni hurmat etishga, tinchlik, totuvlik bilan yashashga chaqiradi.

Shoir shoh Aql obrazini chizar ekan, uning oqil, donishmand ekanligini shunday bayon etadi:

Ilm ila hikmat aro Luqmon edi,
Fahm ila fikrat aro burhon edi...
Mard elidek qalbi diram fosh edi...
Adl bila mulk edi ma‘mur anga
Fazl bila xalq edi masrur anga...

Nishotiy bu yerda odil, ilmli, olim, shoir, xalqning ohu zoriga quloq soluvchi shafqatli, o‘ylab fikr bilan ish qiluvchi, mard qalbli podshoh obrazini xayol qiladi. Ana shunday shoh mamlakatni obod qiladi, xalqqa farovon hayot bag‘ishlaydi, deb o‘ylaydi va mamlakatda tinchlik, adolat barqaror bo‘lishini orzu qiladi. Shoir mamlakatni idora qiluvchi shoh xalqparvar, xalq uchun ezgu ishlarni amalga oshiruvchi donishmand kishi bo‘lishi kerakligini uqtiradi.

Fuod obrazi haqiqiy olijanob fazilatlarga ega bo‘lgan fidokor, xalqqa sadoqatli kishi obrazidir. Dil (Fuod) yoshligidanoq hamma bilimlarni egallab, o‘z zamonining donishmandi bo‘lib yetishadi. Fuod faqat bilimdon kishi bo‘libgina qolmay, xalqparvar, adolatni sevuvchi, kishilarga mehribon, suhbatdosh hamdir. U shijoatli, botir bo‘lishi bilan birga, she‘rlar ham ijod etadi. Fuod obi hayotni topishga va unga erishishga intiladi va bu yo‘lda ko‘p qiyinchiliklarga bardosh beradi va g‘olib chiqadi. Fuod jononga jon fido qiladigan kishi. Nishotiy Fuod obrazida eng yaxshi xususiyatlarga ega bo‘lgan, insonparvar kishi obrazini mujassamlashtiradi.

Fuodning ma'shuqasi Husn esa o'zining ismi, jismi va ma'naviy hayoti bilan erkinlikka erishgan, hayo va odobning eng yaxshi namunasini o'zida mujassamlashtirgan ayol obrazidir. Ma'lumki, feodalizm davrida xotin-qizlar islom shariati siqig'i ostida ozodlikdan, jamiyatga aralashishdan mahrum edi. Shoir o'zbek klassik adabiyotining Lutfiy, Navoiy kabi ulug' siymolarining eng yaxshi an'alarini davom ettirib, dostonida o'z maqsadi yo'lida hormay-tolmay kurashuvchi, o'z sevganiga erishish uchun har qanday qiyinchiliklarni bartaraf qila olishga qodir jasur qiz obrazini yaratadi. Asarda Husn nazokatli, ma'naviy go'zal, aqlli va tadbirli ayol sifatida gavdalanadi. U o'z so'zi, maslahati bilan atrofidagi ayollarga namuna bo'la oladigan darajada dono, olijanob ayol obrazidir. Husn faqat ehtirosli ma'shuqagina emas. U o'zining har bir qadamida xalqqa ma'qul bo'ladigan biror ish qilishni o'ylaydi:

Husn parivashga yetib bo'yla hol,
Elga g'amin der chog'i bor erdi lol.
Urmas edi degali g'am elga dam
Topmas edi mahrami asrori g'am.

Husn el hamma narsani biladi, deb hayo va odob bilan ish tutadi. Dostonida hayo va odobni o'z burchi deb bilgan iffatli qiz siymosi gavdalanadi. Husn oddiy insoniy fazilatlarga ega. U oqilona ish ko'rish bilan birga ba'zan achchig'lanadi, xatoga yo'l qo'ygan sevgilisiga jazo bermoqchi ham bo'ladi. Fuodning makkor Foriqa qo'lga tushib qolganini eshitgach, undan xafa bo'ladi. U Fuodning Foriqa zindonida azob chekishiga qayg'uradi va unga tadbirli maslahatgo'y, vafodor yor sifatida yo'l ko'rsatadi. Eng muhimi, Husn obi hayot simvoli, inson hayotini abadiylashtiruvchi qudrat sifatida gavdalanadi. Shoir obi hayot to'g'risidagi afsonaviy fikrlarni rad etadi, uningcha obi hayot dunyoviy go'zallik, abadiy hayot bag'ishlovchi mahbub, ya'ni Husn kabi vafodor xotin, mehribon ona – murabbiyadir. U Husn siymosida ayollarning eng olijanob umumlashgan go'zal obrazini yaratadi.

Dostonida shoir zamonasiga nisbatan eng yuksak insoniy fazilatlar Nazar obrazida aks etadi. Nazar eng yaxshi hunarmand, aqlli, zarshunos olim, shoir, shu bilan birga hiylagar, ayyor. Nazar Fuodni orzusiga yetkazish maqsadida yo'lga chiqadi. Cho'llar, tog'lar kezadi, dengizlarda suzadi, ajoyib maxluqlar orasida bo'ladi, ularni chalg'itadi, umidsizlanmay maqsad yo'lida jasorat bilan olg'a intiladi. Zulmat ichidan obi hayot qidiradi. Nazar Gulshani Ruxsorga borib, Husn bilan uchrashadi, obi hayotni topib, Fuodga xabar yetkazadi, uni yor visoliga erishtiradi. Shoir Nazar orqali tabiatning mudhish kuchlarini yenguvchi buyuk inson aqlining muazzamligini ifoda qiladi va kishilarni shunday jasoratli ham dono bo'lishga chaqiradi.

Shoir Ishq va Aql obrazlarida o'z zamonasidagi xonliklar, feodallarning urush-talashlariga qarshi birlashgan davlatni maqtab, adolatparvarlik, insof, kishilarga shafqat va g'amxo'rlik g'oyalarini ilgari suradi. Shoh Ishq boshqa mamlakat podshohi Aqlni o'ziga vazir qilib oladi. Har ikki boshliq birgalikda mamlakatda tinchlik,

omonlik o'rnatib, hunar egalarini qadrlab, har biriga o'ziga yarasha munosabatda bo'ladi. Bu fikrlar bilan Nishotiy o'z davridagi feodallarning qirg'inchilik urushlariga, o'zaro talashlariga qarshi markazlashgan davlat tuzish va shu yo'l bilan mamlakatni xarobalikdan saqlash, xalqni tinchlik, osoyishtalikka, farovon hayotga erishtirish, ilm, fanni rivojlantirish masalasini qo'yadi.

Dostonda Nomus shoh obrazida odob-hayo, yaxshi xulq tashviq qilinsa, Qomat, Himmat obrazlari orqali kishilar yaxshilikka, ezgulikka, jamiyatda tartib o'rnatishga chaqiriladi. Himmat bilan Qomat maqsadga intiluvchi yaxshi niyatli kishilarga yordam beradilar. Himmat dahshatli zulm simvoli bo'lgan Raqib, Foriqaga qarshi kurashib, ularni yengadi, Fuod va Aqlning ko'ngliga umid va ravshanlik baxsh etadi. Mamlakatda tinchlik o'rnatib, osoyishta yashashga yo'l ochadi. Himmat rahmdil, marhamatli hukmdor, uning mamlakati obod va farovon. Unda aql hukmron, do'stlik barqaror, gado yo'q. Nishotiy bu bilan farovon obod mamlakatni orzu qiladi. U Himmat obrazini yaratib, kishilarni undan o'rnak olishga chaqiradi.

Dostonda ellikka yaqin obraz bor. Ulardagi odat, xulq, xarakter bir-biridan tamoman farq qiladi. Buni biz tiplar nomidan bilsak ham bo'ladi. Ular odamlardagi turli xususiyatlar orqali ifodalangan. Shoir ijobiy obrazlar orqali kishilarni yaxshilikka, ezgu ishlarga, olijanob fazilatlarga targ'ib etsa, salbiy obrazlar orqali o'z zamonasidagi razillikni, ochko'zlikni fosh qilib, zolimlarga nisbatan nafrat uyg'otadi va ularga qarshi ayovsiz kurash olib borish zarurligini uqtiradi.

Dostonda Raqib o'sha zamondagi zolim, g'addor, berahm, o'z manfaati uchun har qanday qabihlikdan toymaydigan, yaramas kishi sifatida gavdalanadi va kitobxonda unga qarshi nafrat uyg'onadi. Bundan tashqari uning atrofiga yig'ilgan shaxslar ayyor, harom-xarishni farq qilmaydigan maxluqlar sifatida ko'rsatiladi. Ular xalqni chigirtkaday talab, boyishnigina o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan zolimlar, riyokor shayxlar, ruhoniylardir. Ulardan Ilhom va Zaraq obrazlari bunga misol bo'la oladi. Shayx Zaraq odamlardan chetda bir toqqa makon qilib olib, o'zini avliyo ko'rsatib, xalqni aldab, munofiqlik bilan yashaydi. Shoir bunday salbiy tiplarning xarakterini har tomonlama ustalik bilan chizib beradi. Bu bilan o'z zamonidagi xalq hisobiga yashagan hukmron sinfnig razil basharasi ochib tashlanadi.

Badiiy tasvir va ijodiy mahorat

Doston to'y tantanasi bilan yakunlanadi. Ziyofatda sozlar va gullar munozarasi avj oladi. Daf bilan Gul, Nay bilan Naxl, Kosa bilan Nargis, Binafsha orasida tortishuv ketadi. Shoir sozlar va gullar munozarasi orqali o'sha zamondagi vijdonli kishilarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning achinarli holda yashaganligi to'g'risida mulohaza yuritadi. Mehr ziyofatida Doira (Daf) bilan Gul munozarasi ketadi. Doira Gulga ta'na qilib, uning ahvoli yaxshi emasligini, xo'rlangan go'zal ayolga o'xshashligini aytadi. Gul obrazida tutqun, insoniy huquqdan mahrum etilgan mazluma ayol siymosi

gavdalanadi. Doira tasvirida o'z zamonida zulm ko'rgan, darbadar dun (pastkash) tomonidan tahqir etilgan, och-yalang'och, muhtoj shaxs obrazi gavdalanadi.

Shoir Shamshod obrazi orqali oddiy kishilarni mensimaydigan, o'zini yuqori tutgan, xudbin odamlarning xulq-atvorini qoralaydi, ularni murdadil deb ataydi. G'amza ziyofatida Kosa Nargisni yengil tabiatlikda, hayosizlikda, xudbinlikda ayblab, unga: "Har nima o'z haddida marg'ub erur", deydi. Kosa obrazida shoir ochko'z, faqat qornini o'ylagan, hirs-havoga berilgan, tama'gir, xalqni talovchi kishilar obrazini yaratadi. Bu bilan Nishotiy o'z zamonidagi tashqi qiyofasi odamga o'xshasa ham, ichi bo'sh, ma'naviy jihatdan odamgarchilikni yo'qotgan kishilarga nafrat bayon qiladi. Giysu ziyofatida Chang bilan Binafsha munozarasi o'tkaziladi. Chang qarasa, ko'k rang kiygan so'finamo, qo'lida hassa, lekin kibru havo bilan turgan Binafshani ko'radi va unga shunday deydi:

Rang ila surat sani etmish xarob.

Fikr sanga tiyra, libosing qaro,

Xona sanga toru palosing qaro,

Loyiq emas bo'lmoqing ushshoq aro...

Shoir Binafsha obrazida kibru havoli qora libos kiygan niyati buzuk, ma'naviy zavq-shavqdan mahrum, el ko'ziga o'zini bilimdon, avliyo qilib ko'rsatadigan riyokor shayxlarni sharmanda qiladi. Umuman dostonidagi masalalar, sozlar, Naxl, Kosa va Gullar munozarasida o'tmishdagi kishilarning allegorik obrazi gavdalanadi. Shoir o'ziga zamondosh turli tabaqa kishilarining yashash yo'llarini, o'zaro munosabatini, ommaning kayfiyatini realistik tasvirlaydi. Shoir o'z asarida sozga va sozandalarga, san'at ahliga yuksak baho beradi va qadrlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishotiy. Husnu Dil. Lirika. -T.: 1967 yil.
2. Nishotiy. Qushlar munozarasi. Jurn. "Guliston". -1970. № 1.
3. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. -T.: 1976.
4. Valixojayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. - T.: 1975.
5. Abdullaev V. Nishotiy. Kitobda: Saylanma. T.: 1982.
6. " O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi Toshkent, O'zDav nashriyoti. 1945. Sharafiddinov O.II tom-
7. Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand:SamDU nashriyoti, 1960.
8. O'zbek adabiyoti.II tom.Zohidov V.-Toshkent, 1959.